

QISHLOQ XO 'JALIGIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ULARNING SAMARDORLIKKA TA'SIRI

Ashurova Nilufar Yuldosh qizi

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi

nashurova25@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda qishloq xo'jaligida innovatsion yondashuvlarning mazmuni, ularning ishlab chiqarish jarayoniga ta'siri hamda samaradorlikni oshirishdagi o'rni tahlil etiladi. Qishloq xo'jaligi sohasida raqamli texnologiyalar, zamonaviy agrotexnika vositalari, resurslarni tejovchi usullar va ilm-fanga asoslangan yechimlarning joriy etilishi mahsulot yetishtirish hajmi, sifati va barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda, ushbu yo'nalishda bir qator muammolar mavjud: innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishdagi qiyinchiliklar, yetarli mutaxassislar tayyorlash tizimining sustligi, infratuzilmaning to'liq shakllanmaganligi va fermer xo'jaliklarining investitsion imkoniyatlarining cheklanganligi shular jumlasidandir. Tezisda bu muammolarni bartaraf etish bo'yicha bir qator takliflar ilgari suriladi: aqlli dehqonchilikni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga keng tatbiq etish, innovatsion texnologiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish zarurligi ta'kidlanadi. Tahlillar orqali qishloq xo'jaligida innovatsion yondashuvlarning izchil joriy etilishi nafaqat samaradorlikni oshirishi, balki tarmoqning raqobatbardoshligini ham mustahkamlashi mumkinligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, innovatsion islohotlar, raqamli texnologiyalar, agrotexnika, aqlli dehqonchilik.

Kirish: Sanoat va qishloq xo'jaligi har bir rivojlanayotgan davlatning asosiy va muhim poydevori bo'lib kelgan. Shu jumladan, bu ikki tarmoq O'zbekistonning ham tarixiy va tabiiy sharoitlari, mehnat resurslariga boyligi bilan ajralib turadigan va dolzarb ahamiyat kasb etadigan sohalaridir. So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni yanada jadallashtirish, oziq-ovqat ta'minotini esa mustahkamlash, kambag'allikni qisqartirish doirasida yangi ish o'rinlarini yaratish va eksport hajmini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2019-yil 23-oktyabrda Prezidentimiz tomonidan imzolangan PF-5853-sonli Farmoni asosida „Qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi (2020-2030)“ tasdiqlanib, ushbu tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish, zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish maqsad qilib qo'yildi [1]. Mazkur strategiyani amalga tatbiq etish maqsadida 2020-yil 28-

yanvarda Prezidentning PQ-4575-sonli qarori bilan uni amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlandi [2]. Va ushbu qaror tepada keltirilgan qaromning ahamiyatini yanada mustahkamladi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi tarmog'i o'zining dolzarb ahamiyatini yanada oshirib borishi bilan bir qatorda hukumat tomonidan keng miqyosida e'tibor qaratilmoqda. Bu orqali esa ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va ichki bozorni barqarorlashtirish maqsad qilingan. 2025-yil 21-yanvarda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27-sonli qarori bilan sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan yangi mexanizmlar joriy etildi [3]. Bu es o'z navbatida, tarmoqlar o'rtasida ilm-fan va texnika asosida samarali hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Yuqoridagi qonunlar va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar shuni ko'rsatadiki, sanoat va qishloq xo'jaligi doirasida muvozanatni saqlash, bu ikki sohaning rivojlantirish yo'lida qilinadigan har qanday harakatlar muhim ahamiyat kasb etib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda dolzarbligini namoyon qiladi.

Adabiyotlar sharhi: Nemis olimi Ralf.F Qishloq xo'jaligiga „Jahonda qishloq xo'jaligi tarkibining turlicha va rivojlanish usullarining ko'pligiga qaramasdan ilmiy asosda rivojlangani agrosanoatdir“ deb ta'riflaydi[4]. Agrosanoat esa organik yo'llar bilan to'la bog'liqlik kasb etadi. Qishloq xo'jaligida rivojlanishning eng samarali yo'llaridan biri organik usul hisoblanadi. Organik usul qishloq xo'jaligida keng ko'lamli tushuncha bo'lib, atrof muhitni saqlab qolish, rivojlantirish va tabiiy kapitalni jamg'arishga ko'maklashuvchi agrar ishlab chiqarishni boshqarishning yaxlit tizimi sifatida nazarda tutiladi. Ushbu tizim avvalo, har bir mintaqaga uchun moslashtirilgan boshqaruv mexanizmlaridan foydalanishni taqazo etadi.

Qishloq xo'jaligida suv iste'molini qisqartirish. Qishloq xo'jaligi toza ichimlik suvini iste'mol qiladigan eng yirik sektor hisoblanadi va uning hissasi butunjahon bo'ylab 70% ichimlik suvi zaxiralariga to'g'ri keladi. Bu iqlim barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Iqlim barqarorligining yomonlashishi esa iqtisodiy barqarorlik va o'sishga ham salbiy va jiddiy ta'sir ko'rsatadi, -deydi olimlar: M.T.Asqarova, J.J.Jamalov va X.S.Xadjayevlar o'z kitobida[5].


Shu o'rinda so'z tasnifi: Barqaror rivojlanish: aholi ehtiyojlarini to'la qondirish maqsadida kelajak avlod ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini xavf ostiga qo'yimaslikka asoslangan rivojlanish tushuniladi.

Oziq-ovqat yetkazib berishning xavfsizligi esa hosildorlik bilan bog'liq. Hosildorlikning kamayishi oziq-ovqat uchun xavf tug'diradi va to'lov balansi uchun jiddiy salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi, bu esa o'z navbatida suv resurslarini barqaror boshqarish va qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda texnologiyalarni qo'llash zarurligini yuzaga keltiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2019-2030-yillar davomida O'zbekiston Respublikasining „yashil“ iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 2019-yil 4-oktyabr, PQ-4477-son Qarorida

2030-yilgacha 1 gektar maydonni sug'orish uchun ishlatiladigan suv sarfini 20 foizga kamaytirish vazifasi belgilandi [6].

Tahlil va natijalar: Suv tanqisligi asosiy muammolardan biri bo'lib qishloq xo'jaligining bir qancha tarmoqlarida qiyinchiliklarga sabab bo'lmoqda. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2030-yilga kelib O'zbekiston dunyodagi suv tanqisligi bo'yicha 33-o'rinda turishi taxmin qilinmoqda[7], bu esa aholi iste'moli va qishloq xo'jaligi sohalarida suvni tejash va o'z navbatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni keng ko'lamda yo'lga qo'yish uchun asosiy implus bo'ladi.

1-rasm. O'zbekistonda sanoat tarmoqlarida iste'mol qilinadigan suv hajmi.



Bir yil davomida O'zbekistonda sanoat tarmoqlarida 56-57 milliard kubometr suv zaxiralaridan foydalaniladi. Ushbu suvning 87 foiziga qishloq xo'jaligida, 9 foizi elektr energiya va baliqchilik sanoatida, atiga 4 foizi ichimlik suvi olish uchun ishlatiladi. O'zbekistonda suv zaxiralaring bor yo'g'i 20 foizigina mamlakat ichida hosil bo'ladi xolos. Qolgan 80 foizi esa tashqi manbalar orqali hosil bo'ladi. Mazkur suvlarning 48 foizi esa yer osti, 52 foizi esa yer usti suvlariga to'g'ri keladi[8]. Suv yetkazib berish tarmoqlarini yaxshilash maqsadida zamonaviy gidrotexnikalardan foydalanish va kundalik hayotda suv iste'molini tejash uchun tushuntirish ishlari olib borish, shu jumladan, nosoz suvquvurlari voz kechish ko'zda tutilgan. Yaxshilangan va zamonaviylashtirilgan suv tarmoqlari qishloq xo'jaligida hosildorlikning yanada ko'payishiga o'z hissasini qo'shadi. Bu natija esa nafaqat qishloq xo'jaligidan va sanoatdan kelib chiqadigan eksport hajmini ortishiga keng va ulkan ulushiga ega bo'lishiga hissa qo'shadi. Eksport hajmining ortishi esa mamlakatdagi iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlaydi.



2-rasm. Fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarning umumiy hajmi [9].

Fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmining o'sish sur'ati (yillik)/Темпы роста объема производства продукции растениеводства в фермерских хозяйствах (годовая)/Growth rate of crop production on farms (annual)

Klassifikator	Klassifikator ru	Klassifikator en	Klassifikator uzb	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	Республика Узбекистан	Republic of Uzbekistan	Ўзбекистон Республикаси	104,7	102,9	106,0	104,2	102,8	103,3	102,3	92,2	90,5	110,2	106,2	105,5	103,6	105,7	102,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	Республика Каракалпакстан	Republic of Karakalpakstan	Қорақалпоғистон Республикаси	136,2	77,5	133,9	83,2	97,9	115,1	110,4	98,2	89,0	126,1	95,6	97,9	105,2	104,3	105,5
Andijon viloyati	Андижанская область	Andijan region	Андижон вилояти	105,0	112,9	107,4	105,3	105,8	103,2	101,8	91,1	120,8	107,2	99,4	105,6	102,0	100,0	104,0
Buxoro viloyati	Бухарская область	Bukhara region	Бухоро вилояти	108,3	105,4	101,1	103,3	102,9	107,5	108,7	103,0	98,5	104,6	103,4	110,7	107,6	105,5	95,4
Jizzax viloyati	Джизакская область	Jizzakh region	Жиззах вилояти	101,8	102,2	106,4	104,1	105,9	102,4	101,4	94,6	87,0	126,4	102,5	101,7	93,1	115,0	105,5
Qashqadaryo viloyati	Кашкадарьинская область	Kashkadarya region	Қашқадарё вилояти	104,7	95,9	106,7	106,1	103,7	102,5	102,8	97,8	83,2	101,9	102,7	102,0	102,5	108,4	104,5
Navoiy viloyati	Навоийская область	Navoi region	Навоий вилояти	104,0	108,9	100,0	99,7	99,9	104,1	98,1	96,7	89,1	104,3	106,5	106,8	103,9	95,4	104,1
Namangan viloyati	Наманганская область	Namangan region	Наманган вилояти	100,5	104,0	103,2	106,8	107,5	103,6	102,8	98,6	96,2	106,1	116,7	121,5	110,9	113,5	102,1
Samarqand viloyati	Самаркандская область	Samarkand region	Самарқанд вилояти	109,6	106,9	108,9	108,0	103,7	106,7	109,9	97,2	74,7	112,7	114,0	106,3	96,0	105,1	103,1
Surxondaryo viloyati	Сурхандарьинская область	Surkhondarya region	Сурхондарё вилояти	100,6	108,2	99,9	102,9	100,6	100,0	94,3	94,2	78,3	125,8	112,2	104,1	95,4	108,1	106,6
Sirdaryo viloyati	Сырдарьинская область	Syrdarya region	Сирдарё вилояти	100,0	105,1	109,9	100,8	105,2	100,3	100,1	82,7	84,2	125,9	109,4	99,4	104,0	100,6	95,5
Toshkent viloyati	Ташкентская область	Tashkent region	Тошкент вилояти	99,5	99,2	100,8	100,2	101,3	98,5	90,5	75,8	91,5	82,7	87,6	97,7	117,3	99,9	99,3
Farg'ona viloyati	Ферганская область	Fergana region	Фарғона вилояти	104,1	106,9	102,1	106,0	96,4	101,1	99,8	80,4	115,3	116,6	120,2	105,3	110,6	107,2	107,0
Xorazm viloyati	Хорезмская область	Khorezm region	Хоразм вилояти	98,2	88,5	117,0	112,7	105,5	103,2	105,1	89,5	73,1	119,4	97,2	101,7	105,9	101,9	100,9
Toshkent shahri	город Ташкент	Tashkent city	Тошкент шаҳри	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

2010–2024-yillar davomida fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmining o'sish sur'atlari mamlakat va hududlar kesimida sezilarli o'zgaruvchanlikni namoyon etadi. Umumiy Respublika ko'rsatkichlari bo'yicha 2010-yil 104,7 % bilan boshlanib, 2014-yilda 108,2 % gacha oshgan. Bu davr ekin maydonlarini kengaytirish va texnika bilan ta'minlash jarayonlarining faol kechganini ko'rsatadi. Biroq 2017–2019-yillarda ko'rsatkichlar bir necha yil davomida 90–100 % oralig'ida tebrangan (2018-yilda 92,2 %), bu esa hosildorlikning vaqtincha pasayganini anglatadi. 2020-yildan boshlab ko'rsatkichlar yana tiklanib, 2021–2023-yillarda 103–106 % atrofida bo'lgan. Hududlar kesimida eng keskin tebranishlar Qoraqalpog'iston Respublikasiga to'g'ri keladi. Masalan, 2010-yilda 136,2 % bo'lgan ko'rsatkich 2013-yilda 83,2 % gacha tushgan, 2014-yilda esa 97,9 % ga ko'tarilgan. 2019-yilda 126,1 % ko'rsatkich qayd etilgani mintaqada ayrim yillarda yuqori hosildorlik bo'lganini ko'rsatadi. Biroq 2020-yilda yana 95,6 % gacha tushishi ishlab chiqarishning beqarorligini tasdiqlaydi. Andijon viloyatida o'sish sur'atlari 2010–2014-yillarda 103–107 % oralig'ida barqaror bo'lgan. Ammo 2018-yilda 98,1 %, 2020-yilda 99,4 % ga pasayish kuzatiladi. Shunga qaramay, so'nggi yillarda (2021–2024) 103–105 % darajasidagi natijalar viloyatda agrotexnik tadbirlarning tiklanganini ko'rsatadi. Buxoro, Navoiy, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida ko'rsatkichlar nisbatan barqaror bo'lib, aksariyat yillarda 100 % dan yuqori bo'lgan. Masalan, Buxoro viloyatida 2015-yilda 109,7 %, 2021-yilda 110,7 % bo'lgan. Qashqadaryoda 2011–2015-yillarda o'sish 103–105 % atrofida saqlangan. Bu hududlarda yer unumdorligining saqlanib qolganini ko'rsatadi. Namangan va Farg'ona viloyatlarida 2010–2014-yillar juda yuqori natijalar qayd etilgan (Namanganda 2014-yil – 108,5 %, Farg'onada – 108,4 %). Ammo 2018–2020-yillarda ikki hududda ham pasayish kuzatilgan. Keyingi yillarda natijalar yana 102–105 % oralig'iga qaytgan. Surxondaryo va Samarqand viloyatlarida eng kam tebranishlar qayd etilgan. Masalan,

Surxondaryoda 2010–2024-yillar oraligʻida koʻrsatkichlar deyarli har yili 100 % dan yuqori boʻlgan. Samarqandda esa 2017-yildan keyin barqaror oʻsish saqlangan (2018-yilda 104,0 %, 2021-yilda 112,2 %). Bu hududlarda resurslardan foydalanish va agrotexnika tadbirlarini amalga oshirish nisbatan barqarorligini koʻrsatadi. Toshkent shahri boʻyicha barcha yillarda koʻrsatkich 0 % boʻlib, bu hududda fermer xoʻjaliklarida dehqonchilik mahsulotlari statistik jihatdan yuritilmasligini bildiradi. **Umumiy xulosalar shuni koʻrsatadiki**, hududlar oʻrtasidagi tafovutlar bir necha omillarga bogʻliq:

- suv resurslarining notekis taqsimlanganligi;
- yer unumdorligidagi farqlar;
- texnika va texnologiyalar bilan taʼminlanganlik darajasi;
- investitsiya va infratuzilma imkoniyatlarining teng boʻlmaganligi;
- innovatsion texnologiyalarni qoʻllash darajasidagi tafovutlar.

Natijalar shuni koʻrsatadiki, qishloq xoʻjaligida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, ayniqsa suv tejovchi texnologiyalar, raqamli monitoring, aqlli dehqonchilik va agrotexnik jarayonlarning avtomatlashtirilishi hududlar oʻrtasidagi tafovutlarni kamaytirishga va hosildorlikning yillik oʻzgaruvchanligini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa:Qishloq xoʻjaligida innovatsion yondashuvlarni joriy etish tarmoq samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil boʻlib, ayniqsa suv tanqisligi, hosildorlikdagi beqarorlik va infratuzilma yetishmovchiligi kabi muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar, aqlli dehqonchilik, zamonaviy agrotexnika vositalari va resurslarni tejovchi usullarni keng qoʻllash orqali hosildorlikni barqarorlashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda hududlar oʻrtasidagi tafovutlarni kamaytirish mumkin. Shu bilan birga, ilmiy izlanishlar natijalarini amaliyotga tatbiq etish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni kuchaytirish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish qishloq xoʻjaligining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Izchil innovatsion islohotlar esa Oʻzbekistonning iqtisodiy barqarorligi va oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashda mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Manba: lex.uz/docs/4567334
- 2) Manba: lex.uz/docs/4214632
- 3) Manba: gov.uz
- 4) „Yashil Iqtisodiyot“ darslik Asqarova M, Jamlov J, Nashr yili: 2022-yil „Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi“
- 5) „Yashil Iqtisodiyot“ darslik Asqarova M, Jamlov J, Nashr yili: 2022-yil „Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi“



- 6) <http://lex.uz/docs/-4539502> 2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida.
- 7) „Yashil Iqtisodiyot“ darslik Asqarova M, Jamlov J, Nashr yili: 2022-yil „Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi“
- 8) „Yashil Iqtisodiyot“ darslik Asqarova M, Jamlov J, Nashr yili: 2022-yil „Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi“
- 9) https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_1463.pdf